



**BANKLAR TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBEKTLARINI
KREDITLASH TARTIBI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Aminboyev Jahongir Oybek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklar tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik biznesni kreditlash jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar, kreditlashning moliyaviy shartlari, risklarni baholash va kredit qarorlarini qabul qilishda qo'llaniladigan usullar o'rganiladi. Shuningdek, maqolada kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun banklar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturlar, kredit tizimidagi o'zgarishlar va kichik biznes uchun kreditlashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Maqola, shuningdek, kreditlashning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar: banklar, kichik biznes, kreditlash tartibi, kreditlash xususiyatlari, risklarni baholash, kredit qarorlari, kredit shartlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kichik biznes dasturlari, kredit tizimi

Kirish. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini yanada yuqori bosqichga olib chiqishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining qariyb 50 foizidan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelmoqda (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.). Rivojlangan xorijiy davlatlarda jumladan, Germaniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi davlatlarda mavjud ish o'rinlarining qariyb 70 foizi kichik biznes hissasiga to'g'ri keladi (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, Jahon banki, tegishli mamlakatlar statistikasi agentliklarining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.). Ko'plab mamlakatlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50 foizdan oshgani iqtisodiyotni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish imkonini bermoqda.

Qanday qilib kichik va o'rta biznes iqtisod uchun o'ta muhim ahamiyatga ega? Garchi har bir korxona nisbatan kichik bo'lsada, ularning hissasi ancha yuqori. Kichik va o'rta biznes iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) mamlakatlarida YAIMning 55 foizdan ortig'i va o'rtacha daromadli va kam daromadli mamlakatlarda YAIMning 60 foizdan 70 foizgacha hissa qo'shadi. Yaponiyada, Xitoyda, Janubiy Koreyada YAIMdagi ulushi 47 foizdan 70 foizgacha





oralig'ida. Hindistonda kichik va o'rta biznes subektlari sanoat sektorining 80 foizini egallaydi (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, Jahon banki, tegishli mamlakatlar statistikasi agentliklarining ma'lumotlari, OECD ochiq manbalari asosida tayyorlandi.). Kichik biznes subektlarini kreditlashning huquqiy asosi sifatida "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" qonunining 8-moddasiga asosan tadbirkorlik faoliyati subektlari kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda o'zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o'zga mol-mulkni olishga va tekin, ijaraga olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirish huquqlariga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlar bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida o'z mol-mulkidan, shu jumladan ashyolari va mulkiy huquqlaridan, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno, shuningdek o'zi olgan kreditni to'lay olmaslik xavfini sug'urta qilish polisidan foydalanishi mumkin.

2023 yilda Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston o'tgan yilga nisbatan 4,46 balga ko'tarilib 74-o'rinni egalladi. "Qurilishga ruxsat etish" ko'rsatkichida 135 o'rinni egalladi. Yangi tashkil etiladigan biznesni ro'yxatga olish bo'yicha 73 o'rinni, "Kichik biznes subektlariga kredit berish" deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 55-o'ringa ko'tarildi (www.worldbank.org 2023 International Bank for Reconstruction and Development. // The World Bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.). Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Kichik biznes subektlari kredit olishdagi muammolarini ikki guruhga bo'lib ya'ni, ichki va tashqi muammolarga ajratishimiz mumkin bo'ladi.

Kredit olishdagi tashqi muammolar:

a) moliya institutlari tomonidan kichik biznes subektlariga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yuqoriligi buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash yuqori risk darajasiga egaligi bilan izohlanadi; (hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2024 yil 1 yanvar holatiga 19,4 foizni tashkil etmoqda (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi.).

b) kreditni so'ndirish muddati qisqaligi;





c) kredit olish jarayoni murakkabligi;

Kredit olishni qiyinlashtiradigan ichki muammolar:

a) kichik biznes va xususiy subektlari uchun taklif qilinayotgan kreditlar cheklanganligi;

b) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlashda raqobat bozori mavjud emasligi;

c) faoliyatining miqyosi kichikligi, uning holatini baholash qiyinligi;

d) kredit olish uchun biznes-reja tayyorlash sifati;

e) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kredit tarixi mavjud emasligi va boshqalar.

Xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashda tijorat banklari mablagʻlari yuqori ulushni tashkil etadi. Misol uchun, kichik biznesga ajratilgan kreditlar Koreyada 2023 yilda YAIMga nisbatan 38,9 foiz, Tailandda 33,7 foiz, Malayziyada 20,1 foizni Xitoy, Koreya, Tailand kabi davlatlarda 30-40 foiz, Indoneziya, Qozogʻiston davlatlarida deyarli 20 foizni tashkil etgan boʻlsa (Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. Maqolalar toʻplami. – Toshkent, YUMOM, 2024. – 140 b.), bizda bu koʻrsatkich 2024 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar 2023 yilga nisbatan 23,3 foizga oshib, 39 trln. 564,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi. YAIMga nisbatan 7,8 foizni tashkil etmoqda. Bu koʻrsatkich boshqa davlatlarga nisbatan past darajada ekanligini koʻrsatib turibdi (www.cbu.uz Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yildagi faoliyati toʻgʻrisida hisobot.).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash sohasida kompleks chora-tadbirlarni muvofiqlashgan tarzda amalga oshiruvchi, davlat yoki aralash kapital bilan tashkil etiladigan maxsus davlat muassasa yoki tashkiloti AQShda Kichik biznes assotsiatsiyasi (Small Business Administration, SBA), Yaponiyada Kichik va oʻrta korxonalar agentligi (Small and Medium Enterprise Agency), Koreya va Chexiyada Kichik biznesni moliyalash davlat korporatsiyasi, Germaniyada davlat kapitali ishtirokidagi ixtisoslashgan kredit muassasasi, Polshada Tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha agentlik (PARP), Singapurda Savdo va sanoat vazirligi huzurida tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (SPRING), Qozogʻistonda “Tadbirkorlikni rivojlantirish fondi” aksiyadorlik jamiyati (DAMU), Belorussiyada “Tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash fondi”, Hindistonda “Kichik va oʻrta biznes vazirligi” (MSME) tashkil etilgan. Oʻzbekistonda aynan bir muassasa bunday faoliyat bilan shugʻullanmaydi. Bir nechta tashkilot kichik biznes va xususiy



tadbirkorlikga ko'mak beradi.

Ushbu muassasalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga tijorat banklaridan kredit olishda vositachilik vazifasini, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish, loyihaning barcha bosqichlarida tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Buning natijasida biznes rejani ko'rib chiqish muddati qisqarib, tadbirkorlarning ortiqcha xarajatlari sezilarli kamayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4848 sonli farmoni mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarida kreditlash jarayonlari 2013 yil 23 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Kichik tadbirkorlik subektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida"gi 22/9-son Nizom asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar kreditlash obektlari hisoblanadi.

Ilg'or xorij tajriba asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga kreditlar berilishida quyidagi tamoyillardan foydalanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Agar ushbu tamoyillarni tahlil qilib chiqsak bir qancha muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Kreditlash tamoyillari va uni qo'llashdagi muammolar

Tamoyil	Mazmuni	Qo'llashdagi muammolar
Qaytarishlik	Bank tomonidan beriladigan har bir so'm pul malag'lari yana bankka qaytarilishi lozim	1. Olingan kreditlarni qaytarib berishdagi ma'sulyatsizlik; 2. Kreditlarni undirishda huquqni muxofaza qiluvchi organlarning ko'magi kerakligi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



To'lovlilik	Olingan kredit uchun haq to'lashlikdir (foiz)	1. Kreditlarning foiz to'lovlari balandligi; 2. Belgilangan foizlar o'z vaqtida to'lanmasligi oqibatida to'lanishi lozim bo'lgan qarz summasining oshib ketishi; 3. Foizlarni o'z vatida to'lamasligi oqibatida bank foydasining pasayishi;
Muddatlilik	Qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq, vaqtinchalik olingan mablag'larning to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlaydi	1. Aniq belgilab berilgan kreditning qaytarish kunida mijozning to'lov qobiliyati pasayib ketishi natijasida muddatning uzaytirilishi.
Maqsadlik	Kredit so'ralayotgan maqsad taqdim etiladigan biznes rejada o'z aksini topadi	1. Biznes rejada belgilangan maqsadlarda og'ishishlar.
Ta'minlanganlik	Kredit berilishiga asosan qarz oluvchining ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi	1. Tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan garov hujjatlariga ishonmaslik oqibatida bir necha garov vositalaridan foydalanish.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kreditlar bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq beriladi.

Kreditlar, kreditlanayotgan tadbirkorning o'zini-o'zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

- a) qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga - 12 oy muddatgacha;
- b) aylanma mablag'larni to'ldirishga - 18 oy muddatgacha;
- c) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma





mablag'larni to'ldirishga - 24 oy muddatgacha;

d) asosiy vositalarni sotib olish uchun 36 oy muddatgacha.

Har bir tijorat banklari o'z kredit siyosati asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashning imtiyozli davrini belgilaydilar. Shuningdek kreditlar qonun hujjatlarida taqiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun va ilgari olingan kreditlarni yoki tijorat bankining «Kredit siyosati»da belgilangan boshqa qarzlarni qaytarish uchun berilishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmurodov, A. (2019). *Kichik biznesni kreditlash: Banklar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar va ularning tahlili*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
2. Soliev, S. (2021). *Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va kreditlash mexanizmlari*. Toshkent: "Iqtisodiy fikr" nashriyoti.
3. Moliya vazirligi. (2020). *Banklarning kichik biznesga kredit berish jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillar*. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2022). *Banklar tomonidan kichik biznesga kreditlash: Tahlil va istiqbollar*. Toshkent: Markaziy Bank nashriyoti.
5. International Finance Corporation (IFC). (2021). *Financing Small and Medium Enterprises in Emerging Markets*. Washington, D.C.: IFC Publications.